

Shukur Xolmirzayev Hikoyasidagi Nafs Timsoli

Qo'ziyeva Shahrizoda¹

Anatatsiya: Maqolada Shukur Xolmirzayevning "Ux" hikoyasidagi endigina o'n sakkizga kirgan qizning yoshligi tufayli hirsni sevgi deya o'ylagani, oqibatda esa ota-onasi, yaqinlarining yuziga oyoq qo'yib, o'zligini yo'qotgani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ayol, hirs, ota-ona, oriyat, boylik, oila, haqiqat, umid.

Farishtalarga aql berildi, ammo nafs berilmadi. Hayvonlarga nafs berildi, illo aql berilmadi. Ammo tabiat mo'jizasi bo'lgan insonga ham aql, ham nafs berildi. Nafsi aqldan ustun bo'lsin uchun emas, bilaks, aqli nafsini boshqarib tursin deya. Shunday ekan, inson yaralibdiki, aql va nafsni teng olib borishi kerak. Agar nafs aqldan ustun bo'lsa, uni razolat botqog'iga tortishi hech gap emas. O'zbek adabiyoti nasrida ham juda ko'p o'rinlarda tilga olinadigan tushunchalardan biri nafsdir. Uning quliga aylanib, o'zligidan, or-nomusidan, boringki, qadr-qimmatidan mosuvo qiladigan oqibatlarga olib boruvchi voqealarni o'z hikoyalarida zo'r mahorat ila tasvirlaydigan qalami o'tkir yozuvchi Shukur Xolmirzayevdir. Shukur Xolmirzayevning "Ux" hikoyasidagi yoshgina qizning nafsni, odamlarning jirkin hirsini sevgi deya o'ylagani va shu yo'llarda yurib, o'z qadrini poymol etganini quydagi hikoya prologidan bilib olishimiz mumkin. Do'konda sotuvchi bo'lib ishlaydigan o'n sakkiz yoshli qiz oilali erkakni sevib qoladi.

"Do'konda ishlardim. Bir yigit "Volga"da kelib tushardida, yuz so'm tashlab, bitta "Tu" olib ketardi. Qaytimini so'ramasdi. O'shanda sigaret 40 so'm edi. Men ham unga "qaytimini oling" demasdim. U kelganda o'zimni yo'qotib qo'yardim".² Bu jumladan ko'rinib turibdiki, endi o'n sakkizga kirgan yoshgina qiz, birinchidan pulga, ikkinchidan sevgi deb o'ylagani, havasga oshufta bo'lib qolgan desak, adashmagan bo'lamiz. Bu yerda faqat qiz emas, yigitning ham qaysidir ma'noda shumligi ko'rinib turibdi, nazarimizda. Sababi, bitta sigaret uchun 100 so'm tashlab ketib, qaytimini so'ramaslik, shunchaki, oliftalik belgisi emas, bizningcha. Odam qanchalik boy bo'lmasin, nafsni ammoraga qarshi chiqolmaydi. Ko'zi to'ymaydi. Balki, hikoya qahramoni bo'lgan sotuvchi qiz ham yigitning, avvalo puliga "oshiq" bo'lgan desak, ayni haqiqat bo'ladi. Aynan pul, qizning yigitga bo'lgan qiziqishini orttirgandir.

"Kelishgan yigit edi. Kamgap. Faqat salom berardi-yu, sigaretini olgandan keyin bitta ux tortar edi. Bir kuni yo'lni yoqalab ketayotsam, orqamdan kelib to'xtadi. Mashinasini to'xtatib, eshikni ochdi.

➤ Kiring, uyingizga oborib qo'yaman, -dedi. Ichkariga qanday kirib o'tirganimni bilmayman. Ketdik".³ O'zbek qizlari azal-azaldan o'zining or-nomusi, o'ziga bo'lgan hurmati, g'ururi bilan boshqa millat qizlaridan ajralib turadi. Lekin yuqoridagi jumla bu so'zlarning mutlaqo aksi. Qiz bola bo'la turib, bir yigitni kelishgan deya, hech ikkilanmasdan ta'riflashi, o'zbek ayollari sha'niga to'g'ri kelmaydigan holat, aslida. Insonning hirsni har maqomga soladi. Nafs sabab bu qiz ham yigitga ergashadi. Hatto hech tanimagan, begona yigitning mashinasiga, eng qizig'i, hech tortinmasdan, e'tiroz bildirmasdan o'tirishi, menimcha, ortiqcha izoh qoldirishga hojat qoldirmadi, nazarimizda. Quloq oshiq bo'larkan ko'zdan avval jumlasini qo'llashning ayni vaqti, bizningcha.

"Aylantiraymi? Daryoni tomosha qilasizmi? deb qoldi.

➤ Mayli, -dedim. Undan ajralgim yo'q, xushim ham o'zimda yo'q edi. Bir torong'i tagiga borib tushdik. Bagajida ikkita yengil kreslo bor ekan. Chiqarib qo'ydi. Tag'in kichkina stol. Birpasda stolning ustini to'ldirdi. Yaxna et, konyak, limon, non-hamma narsa bor".⁴

Shu o'rinda, Ahmad Yassaviyning,

Nafs yo'lga kirgan kishi rasvo bo'lur,

Yo'ldan ozib, xorib, toyib, gumroh bo'lur.

Yotsa, tursa shayton bilan hamroh bo'lur,

Nafsim mani ulg'aytirib xor ayladi,

¹ Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

² Xolmirzayev. Sh. Saylanma. 2-jild. www.ziyouz.com.-B.149

³ Xolmirzayev. Sh. Saylanma. 2-jild. www.ziyouz.com.-B.149

⁴ Xolmirzayev. Sh. Saylanma. 2-jild. www.ziyouz.com.-B.149

Termultirib haloyiqqa zor ayladi, hikmatini eslashni joiz deb bilamiz, nazarimizda. Yoshgina qizning nafsi qurboni bo'lib, hech tanimagan yigit bilan bemalol, andishasiz aylanishi, kamiga, uni ko'rsam o'zimni yo'qotib qo'yaman deya aytayotgan so'zlarini, menimcha, hech qanday so'z bilan oqlab bo'lmaydi. Qiz bolaning yuki og'ir bo'ladi. Sababi, u ikki yelkasida ota-onasi va yaqinlarining or-nomusini ko'tarib yuradi. Lekin bu obraz bu xususiyatlarni batamom unutgan, yoinki, unda or-nomus tushunchasi azaldan mavjud bo'lmagan. Nafsning quliga aylanishning oqibatlarini bilmay turib, uni sevgi deya bong urayotgan bu ikki yoshning taqdiri juda achinarli holat. Agar chin qalbdan sevganida edi, birinchi aylanish uchun mashinaga emas, uylanish uchun uyiga sovchilikka oshiqqan bo'lar edi. Nafsga qul bo'lgan bandani shayton ham o'z yo'lga solishi juda oson. Bu yoshlarning shaytonga hech qiyinchiliksiz ergashishini quydagi jumladan bilib olamiz.

"Ilgari ichgan bo'lsam piva ichgandirman....Boshim aylanib, yig'lay boshladim.

- ✓ Men sizni yaxshi ko'raman.
- ✓ Bilaman,-dedi u.
- ✓ Siz-chi?
- ✓ Nimaga ux tortaman bo'lmasam?

Men uning bo'yniga osilib olganimni bilmay qoldim. U meni quchdi. Men erib kettim".⁵ Nafsi hakalak otib, o'zligini tamoman unutgan insondan, Xudo asrasinku, shayton ham hazar qilsa kerak, nazarimizda. Uning bu qiliqlari, ota-onaning yuziga bemalol oyoq qo'yishlari, afsuski, ko'ziga ko'rinmayapti. Har qanday nafsiga yoqqan amal Allohning nazarida gunohdir. Nafsingga yoqmaydigan ishlar, aslida chin musulmonlarga xos fazilatdir. Nafsi faqat unga yoqmaydigan ishlarni qilib o'ldirish mumkin. Unga hirs qo'ygan inson, illo ro'shnolik ko'rmagay. Xulosa qilib aytganda, inson tug'ilibdiki, kamdan-kam holatlardagina nafsini yengga oladi. "Nafsini o'ldirgan, qalbini tiriltiradi,"- deydi donolar. Nafs kuchaygan sayin qalb o'la boradi. Shu kabi voqealarni hayotiy detallar asosida qog'ozga tushirib, o'quvchilar qalbidan chuqur o'rin oladigan yozuvchi Shukur Xolmirzayev ham jonli tarzda kitobxonlar mehrini har doimgiday a'lo darajada qozona oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmirzayev. Sh. "Og'ir tosh ko'chsa". Toshkent. 1980.
2. Yo'ldoshev. Q. "Yoniq so'z". Toshkent. 2006.
3. Xolmirzayev. Sh. Saylanma. 1-jild. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Xolmirzayev. Sh. "Yo'llar, yo'ldoshlar". Toshkent. 1984.
5. Mirzayev. T, Musaqulov. A, Sarimsoqov. B. "O'zbek xalq maqollari". Toshkent. 2005.

⁵Xolmirzayev. Sh. Saylanma. 2-jild. www.ziyouz.com.-B.149